

QOZIKALON MADRASASI.

Salimov Matyusuf Kodirberganovich

Yangibozor tuman 1-sон kasb hunar maktabi o'qituvchisi

Qozilik faoliyati xonlik va amirlikdagi muhim lavozimlardan biri hisoblanadi. Bizning diyorimizda qozilar faqat davlat boshqaruvida emas, ta'lif- tarbiya faoliyatiga ham katta e'tibor berishgan. Shuning uchun ko'pchilik qozilar madrasalarda ta'lif berish bilan bir qatorda bilim maskani, ya'ni madrasalar bino qildirgangan. Masalan qozi Soqiy madrasasi XVII asr boshlarida Samarqandda (saqlanib qolmagan), Qozi Kamol madrasasi 1832- yil Qo'qon shahrida, Goyibnazar qozi madrasasi 1892-yil To'raqo'rg'on shahrida, Hikmatulloh oxund qoziaskar madrasasi Xiva shahrida 1916-yil (saqlanib qolmagan), shular qatorida qozikalon domla Muhammad Salim oxund Xiva shahrining Ichon qal'asida uch yil maboynida madrasa bunyod qilib, 1905-yil madrasani qurub tugatgan. Madrasa Jome masjid bilan Muhammadniyoz Devonbegi madrasasi oralig'ida joylashgan. Madrasa to'rtburchaktarhli (32,5x23,4 m), peshtoq gumbazli, peshtoq orqali miyonsaroyma kiriladi. Miyonsaroyning ikki yonida masjid va darsxona joylashgan. O'n oltita hujrasi bor, shulardan to'rtta hujra ikki xonadan iborat. O'rtasi havli va hovlida bitta quduq joylashgan. Voqfnomasida: "Qozi ul quzot domla Muhammad Salim oxund bin Muhammad Sa'id maxzum marhumi al-Gurlaniy sam al-Xivaqiy hijriy 1324-yil rabbiali avvalning 4- kuni (milodiy 1906-yil 28-aprel), juma kuni vaqf sahib shar'iy tassadduq 'ayniy qildilar o'zlarining 745,5 (1 gaz-72 sm)gaz bir qit'a yerlarini Qubbatul-islom Xivaq dorulsaltanasining qadimiylar qal'asi ichida Shayx Kabir ota aliya rahima juvoridagi yerida madrasa bino qildi va madrasa g'arbida ya'ni madrasa orqasida 16 gaz vaqf qilindi , taxoratxona uchun, jami 761,5 gaz turur. Yana madrasada bir masjid, bir darsxona va 20 adad hujra , 4 hujrasi 4 hujra kunjida turur. Hududi sharqi va shimolisi va g'arbi roh a'mmo (yo'l) , va janubi Abdulloh mahram mulki va ba'zi Pahlavon Mirzaboshi(Komil Xorazmiy) mulki, maxfiy qolmasinkim madrasanining g'arbi va janubiy burjida 2

ombarxonada 1 hojatxona va 1 mustahabxona turur “-deb keltirilgan. Bugungi kungacha bu ombarxonalar yetib kelmagan, faqat madrasa hovlisidan ombarxonaga chiqadigan hujralar orasida yo‘lak saqlanib qolingan. Yana vaqfnomada madrasada o‘qitish dasturi ham ko‘rsatilgan. Shu bilan birgalikda madrasaga mutavalli, oxund tayinlash va suvchi farrosh ishchi xodimlar ham ishga tayinlash keltirilib o‘tilgan. Madrasada talabalar soni 35 nafargacha bo‘lgan. Madrasaning vaqf yerlari xonlikning turli bekliklarida ya’ni Qo‘shko‘prikda, Xitoyda (Amudaryo tumanida), Mang’itda, Qahromonda (Xivada, Qaromon qishlog’i), Gurlan bekligida, Xiva shahrining Badirxon qishlog’ida, Toshhovuzda, Monoqda yerlar vaqf qilingan. Abdulloh Boltayevning esdalik daftarlarida: “Qozikalon madrasasi qurilgan vaqt 1905-yil, hujralar soni 16 ta, vaqf yerlari 1108 tanob (2,5 tanob-1hektar)”, - deb qayd qilingan. Yana ko‘plab xonlikdagi yashovchi fuqarolar o‘zlarining yerlarini, naqd pul (tillo tanga) mablag’larini va kitoblarni ham madrasaga vaqf qilganlar. Ayniqsa Gurlan bekligi fuqarolari ko‘pini tashkil qiladi. Misol tariqasida quyidagini keltiramiz: “ Tarix 1330-yil 3-shavvalda (milodiy 1912-yil 9- sentabr) Momojanbika bint Qurban niyoz hoji Gurlanli 100 tillo, har biri 9 tanga, yana 1 jild a’qoid, 1 jild julpi bir qozi pazoviy, 1 jild muhshi bir mantiq, 1 jild muhshi bir sharhi mullo, 1 jild Mir Sayid Sharif bir faroiz, 1 jild tafsir Zahrovin, 1 jild tibb arabi, 1 jild tutma, 1 jild Muxtor ul fatvo, 1 jild mullo Jalol kitoblarini qozi qozi ul quzot domla Muhammad Salim oxund eshonning Xivaq dorul sultanasi ichkari qal’asida bino qildirgon madrasa oliysiga vaqf qilaman”. Bulardan ko‘rinadiki xonlik vaqtlarida ta’limga oddiy mulkdorlar ham bee’tibor bo‘lmagan.

Qozikalon domla Muhammad Salim oxund.

Muhammad Salim oxund 1820-1825-yillar Xiva xonligining Xiva shahridan 60 kilometrcha shimolida joylashgan Gurlan bekligida ziyoli oilasida dunyoga kelgan. Chunki Muhammad Salim oxund avlodlarining shajarasida bobolari ismiga oxund , mullo, domla , maxdum qo‘shib keltilgan.Muhammad Salim oxundning shajarasiga qarasak uning Muhammad Sa’id maxdum, Abduqodir maxdum, Olloshukur oxund va Musulmon quli oronli degan bobolari ko‘rishimiz mumkin. Yana katta buvilari

(momomiz deb yozilgan Nizomiddin oxund kundaligida) avlodlarida ham maxdumlar, oxundlar uchraydi. Shayxul islom, a'lam, oxund, domla, maxdum, eshon laqablari islom dunyosida, ayniqsa markaziy osiyoda diniy unvon, lavozim, martaba, ulug'lash sifatida qaralgan. Muhammad Salim oxund dastlab o'zi tug'ilib katta bo'lgan Gurlan beklidagi Polvon mushruf masjid qavmida, keyinchalik Gurlan bekligi qal'asida joylashgan Qutubi zamon Abdulloh eshon madrasasinda tahsil olgan. Gurlan beklidagi madrasani tugatib Xiva shahriga borib zamonasining mashhur, katta madrasalaridan biri bo'lgan Ollohqulixon madrasasinda o'qishni davom qildirgan. Shu bilan birgalikda Xiva shahrida xattotlik ham qilgan. Shu kungacha yetib kelgan o'z qo'li bilan nusxa ko'chirgan tarixiy kitoblaridan hijriy 1270-yil, milodiy 1853-yilda Ollohquli xon madrasasinda Bahodirxon Muhammadaminxon davrida, hazrat Abdurahmon Jomiyning "Sharhi mullo", hazrat Jomiyning yana bir devonini (kulliyotini) va (hijriy 1317-yil) milodiy 1899-yilda ko'chirilgan Abulg'oziy Bahodirxonning "Shajarai turk" tarixiy asarlaridir. Hozirda "Shajarai turk" nusxasi fanga "Gurlan" nusxasi va tayanch nusxalardan biri bo'lib kirdi.

Muhammad Salim oxund yoniga yo'ldosh, sherik topib, hijriy 1274-chi (milodiy 1857 -yil) yildan to 1286-yillargacha (milodiy 1869-yil) 13 yil Buxoroi Sharif shahrida Ko'kaldosh madrasasinda ta'lif olish bilan birga tolibi ilmlarga ham dars bergen. Bu madrasa tarixidan ma'lumki bu madrasani tamomlagan talabalar ko'pchiligi oxund unvonini olib, davlatning ko'plab yuqori diniy lavozimlariga ta'yinlangan. Shu bilan birgalikda bu Buxorodagi Ko'kaldosh madrasasida ko'plab Xiva xonligi talabalari tahsil olgan. Qozikalom Muhammad Salim oxund 1869-yil ta'limi tugatib Xorazmga keladi va Xiva shahriga rais bo'lib tayinlanadi. Undan keyin muftiy, qoziaskar va 1900-yil qozikalon bo'lib tayinlanadi. Shu bilan birgalikda doim madrasalarda mudarrislik va xattotlik ham qilgan. Hijriy 1322-yil rabbi ul soniyning 3-kuni (milodiy 1904-yil 6-iyun) Qoraqum hazratlari- Sirojiddin rahmatullohi alayhi hazratlariga (hozirgi Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumanida) qo'l berib murid bo'ladi, tariqqat yo'liga kiradi va qoraqum eshon hazratlaridan irshod olib, Muhammad Rahimxon soniy – Feruz talabi bilan yana o'zining qozikalonlik lavozimiga qaytadi va 90-yoshdan ortiq

hayot kechirdi, umrining oxirigacha qozikalonlik vazifasini haq yo‘lida sidqidildan ado qildi. Qozikalon Muhammad Salim oxund hijriy 1334-yil robbi ul-soniyning 12-kuni (milodiy 1916-yil 17-fevral) vafot qiladilar va Xiva shahrining garbiy tamonidagi Shohi mardon qabristoniga, o‘zining bino qildirgan qoriyxonasiga qo‘yiladi. Qozikalon Muhammad Salim oxund o‘zining vatani uchun xizmat qildi, madrassa, qoriyxona bino qildi, mingga yaqin shogirdlarga ta’lim berdi, Saliha aya bilan oltita farzandga ta’lim berib, tarbiyalab, o‘qimishli vatanparvar qilib voyaga yetkazishdi. Jadidlar lideri Ismoil Gasprali bosh muharrirligidagi “Tarjimon” gazetasining 1903-yil 21-martidagi sonida qozikalon Salimoxund mashhur ulamoligi va madrasa talabalarining homiysi haqida yozilgan. Yana “Tarjimon” gazetasining 1908-yil 18-yanvar sonida Islomxo‘ja tashkil qilgan “Maktabi rushdiya” (o‘rta maktab) deb nomlangan jadid maktabida 1907-yil 28-may kuni valiahd Asfandiyor va bosh vazir Islomxo‘ja, 31-may kuni Qozikalon Muhammad Salim oxund va boshqa oxund, mudarrislar maktab o‘quvchilarini imtihon qilib, Ahmad Nuriddinning Xorazmlik o‘quvchilarga berayotgan ta’limini yuqori bohalaydilar. Qozikalon domla Muhammad Salim oxund xattot, mudarris, davlat arbobi va jadidchilik faoliyati bilan shug’ullanib Xorazm diyorida o‘chmas nom qoldirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Umid Bekmuhammad.Xorazm jadidchilik harakati ensiklopediyasi. “Milleniumus print” nashriyoti. Urganch 2024-yil.
2. Davlatyor Rahim. Shixnazar Matrasul.Shoh va shoir qismati. Toshkent 1991-yil.
3. Qozikalon Muhammad Salim oxund kundaligi I. Shaxsiy arxiv.
4. Nizomiddin oxund Muhammad Salim oxund o‘g’li kundaligi. Shaxsiy arxiv.
5. Abdullo Boltayev. Ko‘k hoshiyali daftar. Avlodlari shaxsiy arxiv.
6. “Vikipediya” internet sayti.